

## SUYAK YEMIRILISHI (OSTEARTROZ, OSTEOPOROZ)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10637053>

**Turatov Sh.X**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-kurs 1-son davolash fakulteti 106-guruh  
Talabasi*

**Kiyamova D.Sh**

*Ilmiy rahbar: Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrasi v.b. dotsent*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqoladan suyak yemirilishi, ya'ni osteoporoz nima ekanligi, kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, alomatlari, aniqlanish usullari (shifoxona va uy sharoitida), qanday qilib davolash va oldini olish haqida ma'lumotlar olish mumkin.*

### **Annotation**

*From this article you can learn about bone eating, that is, what is osteoporosis, the causes of origin, development, symptoms, detection methods (hospital and home conditions), how to treat and prevent.*

### **Аннотация**

*Из этой статьи вы сможете узнать о поедании костей, то есть о том, что такое остеопороз, причины возникновения, развития, симптомы, методы выявления (больничные и домашние условия), как лечить и профилактики.*

### **Kalit so'z**

*osteoporoz, gonartroz, osteoxondroz, umurtqa pog'onasi churrasi.*

Aseptik nekroz – suyak yemirilishi asosan bo'g'im sohasida uchraydi. U yirik bo'g'im sohalarida kichik bo'g'implarga nisbatan ko'proq uchraydi. Misol uchun son suyagi boshchasi yemirilishi (coccartroz), tizza bo'g'imida suyak yemirilishi (gonartroz) va umurtqa pog'onasini zararlanishi. Barcha suyak va suyak to'qimalari qon, limfa va nerv tomirlari bilan ta'minlanadi. Ayni bir suyak qismini ta'minlaydigan qon tomirlari turli sabablarga, ya'ni tomir torayishi, qisilishi, quyuqlashishi yoki haddan suyulib ketishi oqibatida suyak ta'minoti to'xtab qolishi mumkin. Natijada oziqsiz qolgan suyak qismi qorayishni boshlaydi. Bora-bora u yemirilishga o'tadi, boshida yemirilish nuqtasi kichik keyin u yiriklashadi. Buning oqibatida suyak sinish holatlari ham kuzatishi mumkin. Bunga sabab yemirilayotgan suyak mo'rtlashishi va yupqalashishidir. Bu kasallik har xil tezlikda rivojlanadi. Ba'zan 1-2 yil, ba'zan undan ham tez. Osteoporoz ayollarda erkaklarga

nisbatan 1,5-2 barobar ko'proq uchraydi. 35-55 yoshdagi insonlarda ko'proq uchraydi. Lekin hozirgi kunda 7-8 yoshli, 23-25 yoshlarda ham bu kasallik aniqlanmoqda.

Osteoporoz sabablari har xil. Masalan, semizlik, qandli diabet, travma (jarohat) olish, xafaxon kasalligi, yoshi, jinsi, mehnatga bog'liqlik, qo'shimcha bo'g'imlarni harakatini cheklaydigan omillar, ichish, chekish, osteoxondroz, umurtqa pog'onasi churrasi, umurtqa pog'onasi shamollashi, noto'g'ri jarrohlik muolajasi va eng asosiy omillardan biri kamharakatlilik bilan birgalikda sog'ligiga e'tiborsizlikdir. Semizlik, xafaxon kasalligi, qandli diabet sababli qon tomirlari torayishi oqibati osteoporozga olib kelishi mumkin. Jarohat, ya'ni suyak sinishi natijasida qon tomirlari shikastlanishi, noto'g'ri jarrohlik muolajasidan suyaklar oziqlanishi buzilishi mumkin. Og'ir mehnat qiladigan va doimiy tik turib ishlaydiganlar kishilar, jumladan, quruvchilar, o'qituvchilar, sartaroshlar, bo'g'imlarni harakatini cheklaydigan kasblar (dasturchilar, buxgalterlar)da bo'g'imlarga og'irlik haddan ko'p tushayotgani yoki faqat o'tirib kompyuter bilan ishlash orqali bo'g'imlar harakati cheklanishi tufayli ushbu kasallik kelib chiqadi. Ichish va chekish ham qon tomirlarini toraytiradi, natijada oziqlanish to'xtaydi. Osteoxondroz to'g'ay-paylarda trofik (oziq) va funksional buzilishlar ham sabab bo'ladi. Bu kasallikka eng asosiy sabab kamharakatlilik bilan birgalikda sog'ligiga e'tiborsizlik hisoblanadi. Chunki hech qanday harakat bo'lmaganda qon tomirlari ishi buziladi va kasallik avj olishi hech emas. Sog'ligiga e'tiborsizlik – bu biron joyi og'risa o'tib ketadi deb yuraverish, osteoporozning ba'zi alomatlari, masalan, bel og'rig'i, qo'l-oyoq og'rig'i bo'lganda aynan mana shu alomatlarni kasallik deb o'ylab bel og'rig'i, qo'l-oyoq og'rig'iga davolanish va asosiy narsa o'rtada qolib ketayotganligi hamda kasallik avj olishi uchun vaqtida vaqtida mutaxassisga uchrashmaslikdir.

Kasallik alomatsiz ham og'ir ahvolga kelib qolishi sababi kamharakatsizlik. Bo'g'imga yuk tushmagandan keyin birdan harakatlanganda holat og'irlashadi. Birdan harakat kuchli og'riq paydo bo'lishiga olib keladi. Kasallik alomatlari bo'g'im og'rig'i, bel og'rig'i, qo'l og'rig'i, mushak og'rig'i yana og'riq chov sohasida, oyoq oldida og'riq bo'ladi. Osteoporozdagi bel og'rig'i va umurtqa pog'onasi churrasidagi bel og'rig'ini bir-biridan farqi quyidagicha; umurtqa pog'onasi churrasida og'riq beldan oyoqning orqasi bilan o'tib, oyoq uchigacha boradi. Bundan tashqari tik holatda tizza bo'g'imini bukmasdan 90°C ga ko'tarish paytida og'riq bo'ladi. Osteoporozda og'riq beldan oyoqning oldingi sohasiga beriladi. Osteoporozni aniqlash usullari: lasega simptomi, og'riq va harakat. Lasega simptomi orqali aniqlash; odam chalqancha yotqiziladi va oyoqni yuqoriga

ko'targanda yoki shu holatdan so'ng tizza bo'g'imi biroz bukilganda og'riq bo'lsa kasallik mavjud bo'ladi. Og'riq orqali aniqlash; osteoporozda mahalliy sohada, belda, chov sohasida, bo'g'implarda, qo'lda va oyoq oldi sohasida og'riq bo'ladi. Og'riq suyak to'qimasi zararlanganda u yon atrofidagi sog'lom to'qimalarga zarar yetkazadi. Oqibatda shu sohadagi nerv tolalari bosim ta'sirida kuchli og'riq sezadi. Harakat orqali aniqlash; bu kasallikdagi og'riqlar harakat to'liqligini buzadi. Harakatni cheklab qo'yishi ham mumkin.

Osteoporozni dorilar, giyohlar-u inyeksiyalar orqali davolash mushkul, chunki yemirilish suyak ichida bo'lishi ham mumkin va asosiy sababi kasallangan qon tomirlari bilan ta'minlanishi to'xtagani uchun dorilar ta'sir qilmasligi ham mumkin. Bu kasallikni oldini olish uchun erta tashxislash jarayonlarida qatnashish kerak. Uyda ham osteoporozni aniqlasa ham bo'ladi aynan harakat orqali. Kasallik rivojlangandan keyin MRT apparati orqali nekrotik zonalar aniqlanadi va rentgen qilish orqali qanchalik sinish yoki shikastlanish mavjudligi aniqlanadi. Natijaga muvofiq 2 xil jarrohlik amaliyoti bilan davolash mumkin:

1. Agar suyak shakli butun bo'lsa, maxsus asboblarda yordamida rentgen apparati nazorati ostida shikastlangan joyga bir nechta kanalar ochiladi. Shu kanalar orqali o'lgan to'qimalar tashqariga chiqib ketadi. Tez orada suyak to'qimalari o'sa boshlaydi, keyin PRP terapiyasini qo'llab organizm o'z qonidan zardob tayyorlanadi va o'lgan to'qimalar o'rniga jo'natiladi.

2. Agar suyak shakli o'zgargan bo'lsa endoprtez qo'yish kerak bo'ladi. Bunda nekrozga uchragan joy kesib olib tashlanadi va uni yoki butun bir suyak o'rniga endoprtez qo'yiladi.

Suyak sinishini oldini olish uchun vitamin D, Ca preparatlari, kollagen saqlovchi preparatlar, yallig'lanishga qarshi, qon aylanishini yaxshilaydigan va qonni suyultiruvchi preparatlar, ma'lum vaqt hasa tayoqda yurish, ko'tariladigan yukni kamaytirish tavsiya etiladi.

Kasal bo'lgandan ko'ra uni oldini olmoq afzaldir. Buning uchun har kuni odatiy badantarbiya mashg'ulotlarini bajarish, to'g'ri ovqatlanishga rioya qilish, xotirjamlikni saqlash maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxsuma Oqqo'ziyeva.

<https://kun.uz/uz/news/2023/10/31/suyak-yemirilishining-davosi-bormi#>

2. Киямова Д. Ш., Холмурадова Д. К. Разработка научно-методических принципов и технологии получения угольных брикетов //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-8 (97). – С. 56-58.

3. Yusupova S. S., Holmurodova D. K., D.Sh.Kiyamova . A New Source Of Biologically Active Substances Used In The National Economy And Medicine //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 35-40.